



27-mavzu:


Ovqat hazm qilish sistemasi organlarining tuzilishi va funksiyasi

O'QITUVCHI: TESHAYEVA MOHINUR SAYFULLO QIZI



REJA:

1. Oshqozon.
 2. Oshqozonosti bezi.
 3. Jigar.
 4. Ingichka ichak.
 5. Yo'g'on ichakning funksiyasi.
- 
- 



Oshqozon. Oshqozon qorin ba'shlig'ining yuqori qismida, diafragma ostida joylashgan. Uning sig'im hajmi katta yoshdagi odamlarda 2 litrdan 2,5 litrgacha.

Oshqozon devorining shilliq pardasida oshqozon shirasi ajratib chiqaradigan juda ko'p mayda bezlar joylashgan (55-rasm). Oshqozonning yuqori — kardial.

pastki— pilorik va chap tomonga kengaygan tanasi bor. Oshqozon shirasi tarkibida

shilimshiq modda, fermentlar va xlorid kislota bo'ladi. Shilimshiq modda osh


qozon devonni mexanik shikastlanishdan va fermentlar ta'siridan himoya qiladi.

Fermentlar orqat tarkibidagi oqsillar va yog'lami parchalaydi, Xlorid kislota mik

roblami zararsizlantiradi va oshqozon shirasi fermentlari ishini faollashtiradi.

Orqat 4-8 soatdan so'ng ingichka ichakka o'tkaziladi.





55-rasm. Oshqozon, jigar, o'n ikki barmoqli ichak, oshqozonosti bezi:

1 – jigar, 2 – oshqozon,

3 – qizilo'ngach, 4 – o't pufagi,

5 – o't pufagi yo'li,

6 – oshqozonosti bezi, 7 – oshqo-


zonosti bezi yo'li, 8 – o'n ikki

barmoqli ichak.



Oshqozonosti bezi aralash sekretsiya bezi bo'lib, uning Langergans orolchasi deb ataladigan kichik qismi ichki sekretsiya bezi funksiyasini bajaradi. Qolgan qismi esa o'n ikki barmoq ichak bo'shlig'iga hazm shirasi ishlab chiqaradi. Uning shirasi tarkibida ichakdagi oqsillar, yog'lar va karbonsuvtarni parchalovchi fermentlar bo'ladi (55-rasm).






55-rasm. Oshqozon, jigar, o'n ikki barmoqli ichak, oshqozonosti bezi:

- 1 – jigar, 2 – oshqozon,
- 3 – qizilo'ngach, 4 – o't pufagi,
- 5 – o't pufagi yo'li,
- 6 – oshqozonosti bezi, 7 – oshqozonosti bezi yo'li, 8 – o'n ikki barmoqli ichak.


Jigar. Jigar qorin bo'shlig'i yuqori qismida, o'ng tomonda,
qorurg'a yoyi ostida
joylashgan. Jigar hujayralari o't suyuqligi ishlab chiqaradi. Bu
suyuqlik o't pufagida
to'plamb, maxsus naycha orqali o'n ikki barmoq ichak
bo'shlig'iga chiqariladi. O't
suyuqligi yog'larni emulsiyalab, hazm bo'lishini tezlashtiradi.
Bundan tashqari,
jigar organizmni turli xil zaharli moddalardan himoya qiladi.
Jigar qonni filtrlab,
oziq moddalar bilan qonga so'riladigan zaharli moddalardan
tozalaydi.



Ingichka ichak. Ingichka ichak odam bo'yidan 3-4 marta uzun boladi. Uning oldingi qismi o'n ikki barmoqli ichak deyiladi. O'n ikki barmoq ichakning uzunligi 12 ta qo'l barmoqlari kengligi - 25—30 cm ga yaqin keladi. Uning diametri ichakning boshqa qismlariga nisbatan kengroq. O'n ikki barmoq ichakka osh qozonosti bezi va jigaming o't yo'li ochiladi.


Ingichka ichakning yo'g'on ichakka o'tadigan qismida kalta KO1 richak joylashgan.





56-rasm. Ingichka ichakda ovqatning hazm boʻlishi: *a* – ingichka ichak vorsinkalarining tuzilishi, vorsinkalar orqali oziq moddalarning soʻrilishi; *b* – 1 – bir qavatli epiteliy, 2 – qon tomirlari, 3 – vorsinka, 4 – limfa.

Yo'g'on ichakning funksiyasi. Orqatning hazm bo'lmagan qismi ingichka ichakdan yo'g'on ichakka o'tadi. Yo'g'on ichak devorida shilimshiq modda ishlab chiqaradigan bezlar ko'p bo'ladi. Ichakning bu qismida ko'plab bakteriyalar yashaydi. Ular ishtirokida K vitamini sintezlanadi, orqat qoldig'idagi ayrim moddalar parchalanadi. Yo'g'on ichakda orqat qoldig'idan surning asosiy qismi qonga shimilib, axlat massasi hosil bo'ladi.



E'TIBORINGIZ
UCHUN
RAXMAT!

